

MAKTABGACHA YOSHDAGI KOXLEAR IMPLANTLI BOLALARNI NUTQIY REABILITATSIYASI

Samarqand Kimyo Xalqaro Universiteti
Logopediya yo‘nalishi MSPD-S-251U magistri
Bobomurotova Shahnoza

Annotatsiya: Mazkur maqolada eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun koxlear implantatsiyaning ahamiyati hamda maktabgacha yoshdagi koxlear implantli bolalarning nutqiy rehabilitatsiyasi masalalari yoritilgan. Koxlear implantning tuzilishi, ishlash mexanizmi va implantatsiyaga ko‘rsatmalar ilmiy asosda bayon etilgan. Shuningdek, implantatsiyadan keyingi abilitatsiya jarayoni, logopedik va korreksion-pedagogik ishlarning mazmuni hamda bosqichlari tahlil qilingan. Maqolada maktabgacha yosh davrining nutq rivojidadagi ahamiyati, eshitish asosida nutqni idrok etish, tovushlarni farqlash, talaffuzni shakllantirish, lug‘at boyligini oshirish va grammatik nutqni rivojlantirish yo‘llari yoritilgan. Oila va mutaxassislar hamkorligining nutqiy rehabilitatsiyadagi o‘rni alohida ta’kidlangan. Tadqiqot natijalari koxlear implantli bolalarni jamiyatga moslashtirishda tizimli va individual yondashuv muhimligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: koxlear implant, eshitishida nuqson, nutqiy rehabilitatsiya, maktabgacha yosh, kar va zaif eshituvchi bolalar, surdopedagogika, logopedik ishlar, abilitatsiya, nutq rivoji.

Аннотация: В статье рассматривается значение кохлеарной имплантации для детей с нарушениями слуха, а также особенности речевой реабилитации кохлеарно имплантированных детей дошкольного возраста. Описаны устройство и механизм работы кохлеарного импланта, а также основные показания к его применению. Проанализированы этапы послеоперационной абилитации, содержание логопедической и коррекционно-педагогической работы. Особое внимание уделено развитию слухового восприятия речи, формированию произношения, расширению словарного запаса и развитию грамматической стороны речи у детей дошкольного возраста. Подчёркивается значимость сотрудничества специалистов и семьи в процессе речевой реабилитации. Сделан вывод о необходимости системного и индивидуального подхода к развитию речи кохлеарно имплантированных детей и их успешной социальной адаптации.

Ключевые слова: кохлеарный имплант, нарушение слуха, речевая реабилитация, дошкольный возраст, глухие и слабослышащие дети, сурдопедагогика, логопедическая работа, абилитация, развитие речи.

Abstract: This article examines the importance of cochlear implantation for children with hearing impairments and focuses on speech rehabilitation of preschool children with cochlear implants. The structure and functioning of the cochlear implant, as well as the main indications for implantation, are described. The stages of post-implantation habilitation, speech therapy, and corrective pedagogical work are analyzed. Special attention is given to the development of auditory speech perception, sound discrimination, pronunciation skills, vocabulary enrichment, and grammatical language development in preschool-aged children. The role of cooperation between specialists and families in the speech rehabilitation process is emphasized. The findings highlight the necessity of a

systematic and individualized approach to support speech development and social integration of children with cochlear implants.

Keywords: cochlear implant, hearing impairment, speech rehabilitation, preschool age, deaf and hard of hearing children, surdopedagogy, speech therapy, habilitation, speech development.

Koxlear implant — eshitishda nuqsoni bo‘lgan (kar va zaif eshituvchi) shaxslarga atrof-muhit tovushlari va nutqni eshitish imkoniyatini beruvchi zamonaviy elektron qurilma hisoblanadi. Ushbu qurilma ichki va tashqi qismlardan iborat bo‘lib, ichki qismi jarrohlik yo‘li bilan bemorning ichki qulog‘iga implantatsiya qilinadi, tashqi qismi esa nutq protsessoriga ega bo‘lib, quloq yoki bosh qismiga joylashtiriladi. Tashqi qurilma tovush va nutq signallarini qabul qilib, ularni elektr impulsiga aylantiradi hamda bosh terisi orqali ichki qismga uzatadi. Natijada eshitish nervlari qo‘zg‘atiladi va tovushlar markaziy nerv tizimi tomonidan idrok etila boshlaydi.

Koxlear implantatsiyani qo‘llashga asosiy ko‘rsatma sensonevral karlikning og‘ir va chuqur darajalari hisoblanadi. Implantatsiya uchun tanlov mezonlaridan biri — oddiy eshitish apparatlaridan foydalanish samaradorligidir. Agar eshitish apparati yordamida shaxs so‘zlarning 30–40 foizini anglay olsa, koxlear implantatsiya tavsiya etilishi ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin. Agar eshitish apparati bilan nutqni idrok etish darajasi juda past bo‘lsa, biroq qarshi ko‘rsatmalar mavjud bo‘lmasa, implantatsiya qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Koxlear implantatsiya operatsiyasidan so‘ng ayrim asoratlar yuzaga kelishi mumkin bo‘lib, bu holatlar haqida pedagoglar va ota-onalar xabardor bo‘lishlari zarur. Ular orasida jarohatning asoratlanishi, yuz nervining shikastlanishi, quloq orqasi sohasida sezuvchanlikning pasayishi, muvozanat va ta‘m bilishning buzilishi, shuningdek quloqda shovqinning kuchayishi kabi holatlar uchrashi mumkin. Koxlear implantatsiyadan keyingi jarayonda **abilitatsiya** muhim o‘rin tutadi. Abilitatsiya — bu nogironligi bo‘lgan shaxslarning tug‘ma yoki erta yo‘qotilgan funksiyalarini imkon qadar yuqori darajada rivojlantirishga qaratilgan tibbiy, ruhiy, pedagogik, ijtimoiy va kasbiy chora-tadbirlar tizimidir. O‘zbekiston Respublikasida abilitatsiya nogironligi bo‘lgan shaxslarni faol ijtimoiy va mehnat hayotiga jalb etishga qaratilgan davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Koxlear implantatsiyadan so‘ng olib boriladigan **logopedik va korreksion ishlar** alohida ahamiyatga ega. Operatsiyadan taxminan 3–4 hafta o‘tgach, nutq protsessori implantga ulanadi va uning dastlabki sozlanishi amalga oshiriladi. Audiolog tomonidan amalga oshiriladigan ushbu sozlash jarayoni eshitish sezgilarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu vaqtdan boshlab bola tovushlarni eshita boshlaydi, biroq ularni to‘g‘ri idrok etish va tushunish uchun uzoq muddatli pedagogik mashg‘ulotlar talab etiladi. Yosh bolalarda nutq protsessorini dastlabki sozlash jarayoni murakkab kechadi, chunki ular o‘z sezgilarini baholay olmaydilar. Shu sababli tovushga shartli motor reaksiyalarni shakllantirishga qaratilgan maxsus pedagogik mashg‘ulotlar olib boriladi. Operatsiyadan oldingi va keyingi davrda olib boriladigan mashg‘ulotlarning asosiy maqsadi — bolani tovushga nisbatan shartli reflektor javob berishga o‘rgatish, tinglash qobiliyatini rivojlantirish va tizimli faoliyatga moslashtirishdan iborat. Dastlab bola faqat baland tovushlarni eshitishi mumkin, biroq vaqt o‘tishi bilan asta-sekin tinch, past va yuqori chastotali tovushlarni farqlashni o‘rganadi. Ushbu jarayonda o‘qituvchi va surdopedagogning kuzatuvi muhim bo‘lib, bolaning turli chastotali tovushlar va fonemalarni idrok etish darajasi baholanadi.

Hozirgi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida koxlear implantatsiya eshitishni tiklashning eng samarali vositalaridan biri sifatida keng qo‘llanilmoqda. Oddiy eshitish apparatlari barcha holatlarda yetarli samara bermasligi mumkin. Ayniqsa, sensonevral karlikning og‘ir shakllarida koxlear implantatsiya eshitish va nutqni rivojlantirish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Kar va zaif eshituvchi bolalar ta‘lim-tarbiyasiga oid ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ri tashxis qo‘yish va eshitish qoldig‘idan samarali foydalanish nutqni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda bolaning fiziologik va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, eshitish sezgilariga ta‘sir etuvchi vositalarni to‘g‘ri tanlash zarur. Kar va zaif eshituvchi bolalarda so‘zlashuv nutqini rivojlantirishda og‘zaki nutq, yozma nutq, daktil va imo-ishora nutqidan o‘rinli va uyg‘un foydalanish talab etiladi. Dastlabki bosqichdan boshlab eshitish va nutq ustida parallel ishlash lozim. Korreksion-pedagogik va rivojlantiruvchi ishlar samaradorligini oshirishda koxlear implantatsiya muhim vosita sifatida e‘tirof etiladi. Koxlear implantatsiyaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat: shovqin sharoitida nutqning tushunarligini oshirish, tovush manbaini fazoda aniqlash qobiliyatini yaxshilash, reverberatsiya sharoitida nutqni idrok etishni rivojlantirish, turli tovushlarni farqlash, gapirish ko‘nikmalarini shakllantirish va lug‘at boyligini oshirishdir.

Maktabgacha yosh davri bolaning nutqiy rivojlanishida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda nutqning fonetik, leksik va grammatik tuzilmalari shakllanadi, muloqot ehtiyoji kuchayadi va til orqali ijtimoiylashuv jarayoni faol kechadi. Eshitishda chuqur nuqsoni bo‘lgan bolalarda esa bu jarayon tabiiy ravishda buziladi. Koxlear implantatsiya ushbu bolalar uchun nutqni eshitish orqali o‘zlashtirish imkoniyatini yaratadi, biroq nutqning shakllanishi o‘z-o‘zidan kechmaydi, balki maxsus tashkil etilgan nutqiy rehabilitatsiyani talab qiladi. Koxlear implantatsiyadan so‘ng maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rehabilitatsiyaning asosiy maqsadi — eshitish asosida nutqni idrok etish, tushunish va faol nutqni shakllantirishdan iborat. Dastlabki bosqichda bolaning tovushlarga bo‘lgan e‘tiborini oshirish, atrof-muhit tovushlarini eshitish va farqlash ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Bu jarayonda baland va past tovushlarni, turli manbalardan kelayotgan tovushlarni ajratish mashqlari muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqiy rehabilitatsiyaning keyingi bosqichida nutq tovushlarini idrok etish va farqlash ustida ish olib boriladi. Bolaga unli va undosh tovushlarni eshitish orqali tanish, ularni taqlid qilish va to‘g‘ri talaffuz etishga o‘rgatish asosiy vazifa hisoblanadi. Ushbu jarayonda surdopedagog va logoped tomonidan maxsus mashqlar, o‘yinlar va ko‘rgazmali vositalardan foydalaniladi. Nutq tovushlarini to‘g‘ri shakllantirish uchun artikulyatsion mashqlar, nafas mashqlari va ovoz chiqarishga qaratilgan mashg‘ulotlar tizimli tarzda olib boriladi. Maktabgacha yoshdagi koxlear implantli bolalarda lug‘at boyligini shakllantirish nutqiy rehabilitatsiyaning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Dastlab bolaga kundalik hayotda tez-tez uchraydigan so‘zlar o‘rgatiladi. So‘zlarni o‘zlashtirish jarayoni predmetlar, harakatlar va holatlar bilan bog‘langan holda olib boriladi. Bolaning eshitgan so‘zini tushunishi va uni mustaqil qo‘llay olishi nutq rivojining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Nutqiy rehabilitatsiya jarayonida grammatik tuzilmani shakllantirish ham muhim o‘rin tutadi. Bolalarda gap tuzish, so‘zlarni to‘g‘ri bog‘lash, oddiy jumalardan kengaytirilgan gaplarga o‘tish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bu jarayonda kattalar tomonidan namunaviy nutq, savol-javoblar va dialogli mashg‘ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rehabilitatsiyaning samaradorligi ko‘p jihatdan oila ishtirokiga bog‘liq. Ota-onalar bolaning kundalik hayotida doimiy nutqiy muhit yaratishi, bola bilan

ko‘proq muloqotda bo‘lishi va mutaxassislar tavsiyalariga amal qilishi zarur. Oila va mutaxassislar hamkorligi bolaning nutqiy rivojlanishini tezlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi koxlear implantli bolalarning nutqiy reabilitatsiyasi uzluksiz, tizimli va individual yondashuv asosida olib boriladigan murakkab jarayondir. Eshitish imkoniyatining yaratilishi nutqning shakllanishi uchun shart bo‘lsa-da, nutqni rivojlantirish faqat maxsus pedagogik va logopedik ishlar orqali ta‘minlanadi. To‘g‘ri tashkil etilgan nutqiy reabilitatsiya koxlear implantli bolalarning muloqot qobiliyatini rivojlantirish va ularni jamiyatga muvaffaqiyatli moslashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.-Kukushkina O.I., Goncharova E.L. Koxlear implantatsiyali bolalarning dinamik tasnifi - ovozni o‘qitish uchun yangi vosita // Defektologiya. - 2014. - № 2. - S. 29- 2-Raximova X. Korreksion - pedagogik mashg‘ulotlarda koxlear implantli bolalarni mustaqil faoliyatga tayyorlashning mazmuni va zamonaviy yondashuvlari. “Maktab va hayot” 2020, 7-son. 20-21b
- 3-Fayzieva U, D.Nazarova, F.Qodirova. Surdopedagogika (o‘quv qo‘llanma) “Sano standart” nashriyoti. 2012
- 4-www.cochlear.com 5
- .index.pxp/archive_jspi/article/view/4025